

**TIBBIYOTDA MULOQOTNING O'RNI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR
PSIXOLOGIYASI**

Raximova Roxat Boysoatovna
Toshkent tibbiyat akademiyasi o'qituvchisi
1-davolash ishi fakulteti 2-kurs talabalari
O'razaliyeva Fotima O'tkir qizi
Orinboyeva Shaxrizoda Ulug'bek qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning muloqot muammolari aspektidagi mohiyat tavsifi keltirilgan bo'lib muloqotning psixologik funksiyalari, muloqotning mexanizmlari va vositalarini muloqotning funksiyalari, hamda ilmiy adabiyotlarning tahlilidan misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *muloqot, til, kasbiy, rivojlanish, ta'lif, kommunikativ, lingvistik, taraqqiyot, ma'naviyat, intellektual, ilm-fan, strukturaviy komponent.*

Аннотация: В данной статье рассмотрены сущность коммуникативной компетентности в аспекте проблем общения, психологические функции общения, механизмы и средства общения, функции общения, приведены примеры из анализа научной литературы.

Ключевые слова: *общение, язык, профессионал, развитие, образование, коммуникативное, языковое, развитие, духовность, интеллектуальная, наука, структурный компонент.*

Muloqot – odamlar o'rtaida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi vositasi hisoblanadi. Inson o'z faoliyati jarayonida boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lishiga to'g'ri keladi. Bunda odamlar axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi muqarrardir, ta'lif beradilar, tajriba almashadilar. Shaxslararo o'zaro munosabatlarda ilmiy adabiyotlarda muloqot, muomala deb yuritiladi. Muloqot har qanday faoliyatning zaruriy, muhim jihatidir. Aynan muloqot jarayonida va faqat u orqali insonning mohiyati namoyon bo'ladi, o'zaro tushunishga, ishni bajarish chog'ida uyg'unlikka erishiladi, u yoki bu holatlarda bir-birlarining xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati o'sadi yoki, aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar yuzaga keladi, muloqotga kirishuvchining xatti-harakatini oldindan ko'rishga qobiliyatsizlik namoyon bo'ladi. Muloqot yoki kommunikasiya – odamlarning o'zaro hamkorligi shakllaridan biri. Muloqot odamlarning voqyelikni aks etirishi natijasini ifodalovchi xabarlar almashish jarayoni bo'lib, ular ijtimoiy borliqining ajralmas qismi hamda ularning individual va ijtimoiy ongi shakllanishi va amal qilishining vositasidir. Muloqot yordamida odamlarning birgalikdagi faoliyat jarayonida maqsadli hamkorligini tashkil etish, tajriba almashish, mehnat va turmush ko'nikmalarini olish, ma'naviy ehtiyojlarni namoyon etish va qondirish yuz beradi. Shu o'rinda muomala bu yangi

axborotlarning almashinuv jarayoni bo'lib, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo'lib, o'zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar xar birimizda shaxsiy fikr bo'lsada, o'zaro almashsak, bunda har birimizda ikkitadan g'oya bo'ladi»¹. Ushbu ta'kid bo'yicha ham muloqot davomida o'zaro fikr almashinuvi munosabatlarni harakatga keltiradi.

Muloqatning psixologik taxlili. Muloqot bu ijtimoiy psixologik xodisa bo'lib, uning o'z o'rni va roli mavjurdir. Muloqot odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat extiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqotda ichki ishlar organ xodimlari birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayrboshlanishini o'z ichiga oladi. Shaxslar munosobatga kirishar ekan eng muxim vositalardan biri sifatidagi tilga murojat qiladilar. Muloqotning yana bir tomoni munosobatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi xarakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xarakatlar, xatti-xarakatlar bilan xam ayrboshlashdan iborat. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlariga, dunyoqarashiga, muomala madaniyatiga xam bog'liq bo'ladi, chunki shaxslardagi muloqot bu tabiiy extiyojdir.

Muloqotda shaxslar birgalikda aloqa qilish metodikasi ketma – ket bo'lgan olti bosqichli etapdan iboratdir.

I bosqich – o'zaro bir – birini tushunish

II bosqich – umumiy yoki mos keladigan qiziqishlarni topish

III bosqich – muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplar

IV bosqich – muloqot uchun xavfli bo'lgan sifatlarni aniqlash

V bosqich – individual ta'sir etish va suxbatdoshga moslashish

VI bosqich – umuiy qoidalarni yaratish va o'zaro xarakat qilish

Bosqichlarni ketma – ketligiga riosa qilish to'g'ri ta'sir etishni tashkillashtirishda muxim ahamiyatga egadir. Bosqichlar aloqa qilish jarayonida kuzatilayotgan o'zgarishlarning ketma ketligini kuzatishning dasturi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. U yana o'zaro ta'sir etish yo'llarini nazorat etishi mumkin. Kasbiy muomala xar bir ichki ishlar organlari xodimi faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtiroy etadi. Muomalaning qonuniyatlariga suyangan holda xodim shaxslararo munosabatga kirishadi. Bu muloqot jarayonida xodimning har bir bilish sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, hayol) ishtiroy etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, o'tmishdagi vaziyat bilan bog'lashiga, o'zaro solishtirish va qiyoslash malakasi, obyekti va sharoitni mukammal tarzda idrok etishinga yordam beradi. Muloqot psixologik jihatdan u yoki bu tarzda bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqani o'rnatish va saqlab turish jarayonidir

Bevosita muloqot bu shaxs bilan }yuzma-yuz~ suxbati hisoblanadi, bunday xolatda uning xar bir ishtiroychisi o'zları idrok qiladi, aloqa qiladi va xamma mavjud vositalarni keng ko'llaydilar. Bilvosita muloqot-bu xam aloqa vositasi bo'lib unda shaxslar, bo'limlar va mexanizmlar ishtiroy etishadi, (masalan, telegraf, telefon orqali gaplashish)..

Muloqot asosi hamsuhbatlar bilan o'zaro stimul va ularga reaksiyalar bilan almashinuv aloqasi hisoblanib, bunda berilayotgan axborot sifatlarini, shu bilan bir qatorda hamsuhbatlarning bir-biriga munosabatini inobatga olish joiz. Kommunikatsiya jarayonida amalga oshiriluvchi har qanday axborot 2 turda bo'ladi (V.M.Seluyko): ta'kidlovchi, qayd qiluvchi (sodda axborot) va harakatga keltiruvchi (buyruq, iltimos yoki maslahat ko'rinishida). So'ngisi o'z navbatida faollashtiruvchi shaklida (harakatga undovchi), interdiksiya (ayrim harakatlarni taqiqlovchi) va destabilizatsiya (ayrim bir faoliyat va tarbiya shakllarini buzish) shaklida uchraydi. Hamsuhbatlarning bir biriga moyilligi xarakteriga qarab past va yuqori darajadagi muloqot turlari ajratiladi. Birinchi holatda muloqot "sub'ekt – ob'ekt" ko'rinishida kechadi; qatnashuvchilar teng pozitsiyalarni egallashadi. Ushbu turdag'i muloqot tashabbuskorlari boshqalarni individual o'ziga xoslik va betakror ichki dunyoga va uning tashqi namoyon bo'lishi shakllariga ega shaxs sifatida emas, faqatgina ma'lum bir rolga ega yoki axborot manbai sifatida qarashadi.

Insonlarning eng yuqori muloqoti – ma'naviy muloqot bo'lib, bunda suhbatdosh ma'naviyat tashuvchisi sifatida qabul qilinadi va shuning uchun unga bo'lgan munosabat o'ziga xos muruvvat hissi bilan farqlanadi. Bunday inson bilan muloqotga birinchi navbatda uning tashqi qiyofasi, shaxsiy va ishchanlik sifati emas, uning boy tajribasi va ma'naviy kuchi atrofdagi insonlardan ajralib turuvchi oliy boshlang'ich nuqtasi faqat bir kishiga emas, butun insoniyatga xos majmuasi sifatida qaraladi. Tabiiyki, yuqorida ko'rsatilgan muloqotlarning har bir pog'onasi asl holicha tez-tez uchramasada, ularning elementlari ozmi-ko'pmi darajada turli munosabatlarda kuzatiladi. Shuningdek, bunday muloqotlar o'zaro harakatlarida ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin, ularning hal etilishi esa ko'p hollarda muloqot sub'ektlarining kommunikativ etikasi va ruhiy kompetentliligiga bog'liq bo'ladi.

Muloqot qiyinchiliklari – sub'ektiv o'tkir tig'li kechinmalar, insonni boshqa insonlar bilan munosabatidan qoniqmasligidir. "Qiyinchilik" tushunchasi doirasi shunchalik kengki, u muloqotni aniqlashtirishda va ishlatishga imkon beradi hamda qiyinchiliklarning turli darajasini xarakterlaydi. Muloqot qiyinchiligi jarayonni o'tish murakkabligi darjasи, psixologik asoratlari, suhbatdoshlarning muloqotdan qoniqmaganlik darjasи, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlari yo'llari bilan farq qiladi. Muloqot qiyinchiligi suhbatdoshlarning oldindan maqsadsiz paydo bo'ladi, tashqi tomonidan konfliktsiz o'tadi, ichki diqqatni jamlash, muloqotdan qoniqmaslik hissi, salbiy emotsiyalar bilan yonma yon kechadi, ularni kommunikativ jarayondagi barcha qatnashchilar boshidan kechiradi. "Muloqot qiyinchiligi" o'zida 2 turdag'i muloqot jarayonini qiyinlashtiruvchi to'siqlarni, barerlarni jamlaydi, bular: ma'noviy va psixologik barerlar. Shuni aytish joizki, psixologiya fanida bu tushunchalarning aniq bir ta'rifi yo'q, ko'pincha biri ikkinchisi bilan almashtiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, muloqot- shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Uni qanchalik go'zal qilib bezash o'zimizga bog'liq ekan. Muomala madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va

adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boraveradi. Muloqot xalqning asosiy madaniyatini yoritib beradigan ko'zgu hisoblanadi. Muloqot madaniyati jihatdan sharq halqlari boshqa halqlardan ajralib turadi. Chunki sharq halqlari muloqoti ham mukammallikga asoslangan islom dini bilan sug'orilgan holda bayon qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yemelyanov Yu.N. Teoriya formirovaniya i praktika kommunikativnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ...d-ra psixol. nauk: 19.00.05. – L.: Izd-vo LGU, 1991.
2. Ivanov D.A., Mitrofanov K.G., Sokolova O.V. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. Problemi, ponyatiya, instrumentariy: ucheb.-metod. posobiye.
3. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii i obrazovatelnye standarti // Eydos: internet-jurnal «Sentr distansionnogo obrazovaniya». – 2002. – 23 apr.
4. Sokolova V.V. Kultura rechi i kultura obshyeniya – M.: Prosveshyeniye, 1985
5. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSİYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69
6. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBİY MUHİTNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.
7. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423
8. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJİY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.
9. Boysoatovna, R. R. (2022). O'RTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLAR. Scientific Impulse, 1(4), 737-739.
10. Rohat, R. (2021, February). THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER. In Archive of Conferences (pp. 42-44)..
11. Boysoatovna, R. R. (2023). THE EFFECT OF TRUST BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT ON THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 482-485.
12. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 121-125.